

ONA TILI

Grammatik topshiriqli nazorat diktanti o'tkazish tartibi.

O'quvchilarga nazorat diktanti yozishlarini e'lon qilish.

Diktant yozish tartib-qoidalar:

- diktant matnini o'qib berish;
- diktant ichida bo'g'inlab aytib yozishlarini eslatish;
- husnixat bilan yozishlarini ta'kidlash;
- yozib bo'lgach, ichida bo'g'inlab o'qish orqali tekshirishlarini eslatish.

O'quvchilarga diktant variantlari solingan, maktab direktori tomonidan tasdiqlangan va metodbirlashma rahbari imzolagan 3 ta konvert tavsiya etiladi. O'quvchilardan biri 3 ta konvert ichidan bittasini tanlaydi va ochadi. O'quvchi konvert ichidagi diktant sarlavhasini o'qiydi. O'qituvchi sanani va diktant sarlavhasini doskaga yozadi.

Diktant adabiy-orfoepik talaffuz me'yorlarida, tinish belgilariga rioya qilgan holda o'qib beriladi.

Diktant matnidagi imlosi qiyin va o'rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan so'zlar doskaga yozilib, imlosi tushuntiriladi.

Diktant yozdirilayotganda oldin bitta gap bir butun holda o'qib beriladi, o'quvchilar gap chegarasini aniqlab oladilar. So'ng gap birikmalarga ajratib aytib turib yozdiriladi.

Diktant yozib bo'lingach, o'qituvchi matnni bir marta o'qib bera-di, o'quvchilar yozganlarini tekshirib oladilar. O'quvchilar yozgan-larini yana bir marta ichlarida o'qib tekshiradilar.

Grammatik topshiriqlar quyidagi yo'nalishlarda bo'ladi:

1. Fonetik tahlil.
2. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
3. Morfologik tahlil.
4. Sintaktik tahlil.
5. Leksik tahlil (ma'nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni topish).

Baholash mezonlari:

Grammatik topshiriqli nazorat diktanti boshlang'ich sinf ona tili dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar asosida baholanadi. Har bir javob 5 ball bilan baholanadi va umumiy ball topshiriqlar soniga bo'linadi.

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Fonetik tahlil.
4. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
5. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
6. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
7. Leksik tahlil (ma'nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlarni topish).
8. Xatboshilarga rioya qilinishi.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

Eslatma. Maktab o'qituvchilari nazorat diktanti matnini boshqa matn bilan almashtirish huquqiga egadirlar. Matn tanlashda quyida-gilarga e'tibor beriladi:

- matn bir shaxs tilidan ifoda etilgan bo'lishi;
- matnda ko'chirma gaplar, qo'shma gaplar, qo'shma so'zlar, kirish so'z va birikmalar bo'lmasligi;
- matn 2—3 xatboshidan va 75—80 ta so'zdan iborat bo'lishi;
- ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi;
- o'rganilmagan qoidalarga doir til birikmalarining iloji boricha ishtirok etmasligi.

ILK BAHOR

Kunlar isiy boshladi. Quyoshning iliq nurlari qorlarni eritdi. Mana endi hamma yoq qordan tozalandi. Hatto quyosh tushmaydigan salqin yerlardagi qorlar, muzlar ham batamom erib bitdi. Tog'dan suvlar sharqirab oqa boshladi. Osmonda laylaklar, turnalar va boshqa qushlar ko'rindi. Turnalarning qator-qator tizilishib uchishi hammani o'ziga qaratdi. Ular bahor kelganidan darak beradi. Har tomondan qushlar-ning, bulbullarning yoqimli ovozi eshitilib turadi. Bahor faslida tabiat yashnaydi. Qir-adirlar, dov-daraxtlar ko'm-ko'k libos kiyadi. Tabiatga qarab kishining ko'zi quvonadi **(77 ta so'z)**.

Grammatik topshiriqlar:

1. «Tog'dan» so'zini fonetik tahlil qiling.
2. «Quyoshning» so'zini tarkibiy qismlarga ajrating.
3. «Yoqimli» so'ziga ma'nodosh so'z toping.
4. Ikkinchi gapni gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling.
5. Beshinchi gapdagi otlarni aniqlang.

O'quvchilarning BKMLarini tekshirish:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Fonetik tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Bayon matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

NON USHOG'I

Boboning to'rt yoshli kichkina nevarasi bor. Uning ismi Anvarjon. U sho'x, quvnoq bola. Anvarjonning ko'zlari tim qora. Yerga ursa, ko'kka sakraydi. Kunlarning birida boboning oila a'zolari dasturxon atrofiga yig'ilishdi. Anvarjon nonning ushog'ini yerga to'kib yer edi. Bobosi gilam ustidagi ushoqlarni terib, likopchaga soldi. Keyin ushoqlarni deraza oldida turgan musichalarga berdi. Bobo non ushog'ini uvol qilish mumkin emasligini nevarasiga tushuntirdi. U bobosining nasihatini tingladi. Anvarjon uvol bilan savob nimaligini bilib oldi. Non ushog'ini yerga tushirmaslikka ahd qildi **(78 ta so'z)**.

Grammatik topshiriqlar:

1. «Atrofiga» so'zini fonetik tahlil qiling.
2. «Ko'zlari» so'zining tarkibini aniqlang.
3. Birinchi gapdagi otlarni aniqlang.
4. «Ko'kka» so'ziga ma'nodosh so'zlar tanlang.
5. «Anvarjon uvol bilan savob nimaligini bilib oldi». Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

O'quvchilarning BKMLarini tekshirish:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.

2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshiga rioya qilish.
4. Fonetik tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumlariga ko'ra tahlil.
7. Leksik tahlil.
8. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

MEHNAT

Mehnat inson hayotini bezaydi. Uni elga tanitadi, ulug'laydi. Obro'-e'tiborini oshiradi. Mehnat qilgan odamning vaqti bekor ket-maydi va maqsadiga erishadi. O'quvchining asosiy mehnati o'qishdir. O'qish uchun sabr-toqat, iroda kerak. Mehnatga yoshlikdan o'rganish lozim. Darslarni qunt bilan tinglash va uy vazifalarini vaqtida bajarish zarur. Bobomiz Alisher Navoiy ham sabr-toqat bilan ilm o'rgangan. U kishi o'zining qilgan ishlari bilan elga tanilgan. Shuning uchun bugungi kunda bobomizni butun dunyo biladi. Qunt bilan qilingan ishning samarasi yaxshi bo'ladi **(77 ta so'z)**.

Grammatik topshiriqlar:

1. «Qunt» so'zini fonetik tahlil qiling.
2. «Hayotini» so'zini tarkibiy qismlarga ajrating.
3. Yettinchi gapdagi otlarni aniqlang.
4. «Odam» so'ziga ma'nodosh so'z toping.
5. Birinchi gapning bosh bo'laklarini aniqlang.

O'quvchilarning BKMLarini tekshirish:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi.
3. Xatboshilarga rioya qilinishi.
4. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil.
5. So'z tarkibiga ko'ra tahlil.
6. So'z turkumiga ko'ra tahlil.
7. Fonetik tahlil.
8. Leksik tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Bayon matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

TARVUZ

Sharif maktabga bitta katta tarvuz ko'tarib keldi. U sinfdoshlarini maktab bog'iga chaqirib, tarvuzni kesdi. Qip-qizil shirin tarvuzni mazza qilib yedilar. U tarvuzni Yantoqtepaga ekan edi. Bolalar ishon-madilar. Dars tugadi. Karim, Bahodir, Turg'un, Sharif Yantoqtepaga chiqishdi. Bolalar suvsiz tepalikda palaklar orasida qovun va tarvuzlarni ko'rishdi. Palaklar qurib qolmagan edi. Chunki Sharif yantoq ildizlariga tarvuz urug'ini payvand qilgan edi. Tarvuz palaklari yantoqning ildizidan oziqlanar edi. Yantoqning ildizi juda uzun bo'lib, yerning qatlamidan suv ichardi. Sharif buni amakisidan o'rgangan edi **(79 ta so'z)**.

Grammatik topshiriqlar:

1. «Tarvuz» soʻzini fonetik tahlil qiling.
2. «Suvsiz» soʻzining tarkibini aniqlang.
3. Yettinchi gapdagi otlarni aniqlang.
4. «Katta» soʻziga zid maʼnoli soʻz toping.
5. Toʻrtinchi gapning bosh boʻlaklarini aniqlang.

Oʻquvchilarning BKMLarini tekshirish:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining toʻgʻri ishlatilishi.
3. Xatboshiga rioya qilish.
4. Fonetik tahlil.
5. Soʻz tarkibiga koʻra tahlil.
6. Soʻz turkumlariga koʻra tahlil.
7. Leksik tahlil.
8. Gap boʻlaklariga koʻra tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.

YOZ YOMGʻIRI

Botirning otasi yoz boʻyi kapa tikib, dalada yashaydi. U dalada pomidor, kartoshka, piyoz kabi ekinlarni ekadi. Bir kuni osmonni qora bulut qopladi. Chars-churs chaqmoq chaqdi. Momaqaldiroq gumbirladi. Sharros yomgʻir quydi. Botir oʻzini panaga oldi. Yomgʻir suvlari chumoli iniga sizib kira boshladi. Odatda, chumolining ini doʻppayib turadi. Botir chumolilarga achindi. U yugurib kelib, ining atrofini loy bilan oʻrab tashladi. Shu payt otasi kelib qoldi. U Botirning oʻzini panaga olmaganiga hayron boʻldi. Keyin bilsa, oʻgʻli chumolilarni himoya qilayotgan ekan **(82 ta soʻz)**.

Grammatik topshiriqlar:

1. «Bulut» soʻzini fonetik tahlil qilish.
2. «Iniga» soʻzining tarkibini aniqlang.
3. Oʻninchi gapni soʻz turkumlariga koʻra tahlil qiling.
4. «Osmon» soʻziga maʼnodosh soʻz toping.
5. Toʻrtinchi gapni gap boʻlaklariga koʻra tahlil qiling.

Oʻquvchilarning BKMLarini tekshirish:

1. Imloviy savodxonlik darajasi.
2. Tinish belgilarining toʻgʻri ishlatilishi.
3. Xat boshiga rioya qilish.
4. Fonetik tahlil.
5. Soʻz tarkibiga koʻra tahlil.
6. Soʻz turkumlariga koʻra tahlil.
7. Leksik tahlil.
8. Gap boʻlaklariga koʻra tahlil.
9. Yozuvning husnixat talablariga mosligi.
10. Diktant matniga tuzatishlar kiritilganligi yoki kiritilmaganligi.